

14. Babushkin L.N., Kogay N.A. Fiziko-geograficheskoe rayonirovaniye Uzbekskoy SSR. Trudy TashGU. Nov.seriya. vyp 231. Geograficheskije nauki, kn.27. -T., 1964.

15. Babushkin L.N., Kogay N.A., Zokirov Sh.S. Agroklimaticheskije usloviya selskogo xozyaystva Uzbekistana. -T.: Mehmat, 1975.

16. Bogdanov O.P. Jivotnye Uzbekistana. -T.: O'qituvchi, 1975.

17. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston (o'zbek, ingliz tillarida). -T.: "Mehnat", 2001.

18. Mullajonov I. Naselenie Uzbekiskoy SSR. -T.: "Uzbekistan", 1989.

19. Mo'minov A. va boshqalar. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1984.

20. Soliev A.S., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografyaning nazariy va amaliy muammolari. -T., 1999.

21. Soliev A.S., Mallaboev T. Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o'rganish metodikasi. -T., 1995.

22. Tuxliev N., Taksanov A. Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. -T.: "O'qituvchi", 2000.

23. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -T.: Universitet, 2002.

Internet saytlar:

- 24. www.amazon.com.
- 25. www.undp.uz
- 26. www.gwpcacna.org
- 27. www.Ziyo.net
- 28. www.geogr.msu.ru
- 29. www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH.swf.
- 30. www.uzgeo.uz

Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan (modul) uchun ma'sul:

Erdonov Muhammad Nuralievich – geografiya kafedrasining muduri, dotsent, g.f.n.

Abdunazarov Husan Menglievich – geografiya kafedrasining dotsenti, g.f.n.

Xursanov Sadriiddin Mo'min o'g'li - Geografiya kafedrasining o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Muhammedov Odiljon - Samarqand davlat universiteti "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" kafedrasida dotsenti, g.f.n.

Yakubov O'tkir - Termiz pedagogika instituti "biologiya va geografiya" kafedrasida mudiri, dotsent, g.f.n.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

fanidan

O'QUV DASTURI

Billim sohasi 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
 Ta'lim sohasi 530000 – Fizika va tabiiy fanlar
 Ta'lim yo'nalishi 60530400 – Geografiya

Termiz-2023

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
GGR309	2023-2024	4	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	O'zbek/rus	4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekiston geografiyasi	90	90	180

II.FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishning maqsadi -fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga regional tabiiy geografiya, O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi, O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi eng muhim omillar, mamlakatning tabiiy sharoiti va boyliklaridan xo'jalikni rivojlantirishda foydalanish, xo'jalikni tarmoqlar tarkibi, hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

“O'zbekiston geografiyasi” o'quv kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- O'zbekiston hududining tabiiy geografik o'rganilishi; O'zbekiston tabiatining o'ziga xos xususiyatlari va shakllanish omillari; O'zbekiston hududining geologik rivojlanishi, neotektonik harakatlar, reliefi va orografiyasining landshaftlarni shakllanishidagi ahamiyatini; iqlimi va ichki suvlarining shakllanishidagi qonuniyatlar; tuproqlarning turlari va xususiyatlari, ularning tasniflanishi; landshaftlarining xususiyatlari, ulardan xo'jalikda oqilona foydalanish va muhofaza qilish; tabiiy geografik rayonlashtirilishi, tabiiy geografik okruglarining o'ziga xos xususiyatlari; Respublika aholisi soni, joylashuvi va demografik xususiyatlari; O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va uning ixtisoslashuvi **haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;**

- O'zbekiston hududining geologik va tektonik tuzilishini; relef turlari va ularning tarqalishini; iqlim elementlarining hudud va yil davomida o'zgarish xususiyatlarini; er usti suvlarining turlari, ularning hududiy taqsimlanishi va gidrometrik ko'rsatkichlarini; er usti va er osti suvlaridan oqilona foydalanish muammolarini; tuproqlarning xususiyatlari va er resurslaridan foydalanishi; o'simlik va hayvonlarning tarqalishini, ularning xo'jalikdagi ahamiyatini va muhofaza qilishini; qo'riqxonalar, milliy bog'lar tarqalishi va ularning vazifalarini; tabiiy geografik okruglarining o'ziga xos xususiyatlarini;

O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni baholashni; respublika tabiiy, mineral xomashyo salohiyati va ularning xo'jalik ahamiyatini; O'zbekistonning yirik sanoat markazlari, sanoat tugunlari, sanoat va qishloq xo'jalik rayonlarini; O'zbekistonning hududiy ishlab chiqarish majmualarini; milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlarini; O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlarini; tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda ilmiy tadqiqot usullari hamda zamonaviy geografik axborot tizimlarini **bilishi va ulardan foydalanish kerak;**

- O'zbekistonning tabiati, tabiiy geografik jarayonlar, ularning o'zaro ta'siri, aloqadorligi va oqibatlarini to'g'ri anglash, aniqlash; har bir tabiiy geografik okruglarining mineral, biologik va er-suv resurslari salohiyatini tahlil qilish va xo'jalikda oqilona foydalanish; tabiatini muhofaza qilish va geologik muammolarini bartaraf etish yuzasidan xulosalar chiqarish; O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni baholash; respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qilish va baholash; mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muammolarini aniqlash; O'zbekistonning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarini loyihalash va tuzish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

III. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

III.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

1-mavzu. O'zbekistonning jahon siyosiy xaritasidagi o'rni, ma'muriy-hududiy bo'linishi

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni, maydoni va chegaralari. Uning mamlakatni tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasining makrogeografik, mezogeografik va mikrogeografik tutgan o'rni va roli. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasi.

2-mavzu. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo'jalik ahamiyati

O'zbekistonning yer yuzasi tuzilishi va mineral resurs salohiyati. Iqlimi va suvlari. Agroiqlim resurslari va ularning xo'jalik ahamiyati. Kanallar va suv omborlari, ulardan foydalanishning hozirgi ahvoli. Yer fondi va uning tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonning hayvonot va o'simlik dunyosi, ularning xo'jalik ahamiyati.

3-mavzu. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari.

Aholi soni va uning tadrijiy o'zgarishlari. Mamlakat aholisining joylashuv xususiyatlari. Aholi sonining o'sishi va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar. Respublika aholisining tabiiy va mexanik xarakati, ularning mintaqaviy xususiyatlari. Aholining jins-yosh, milliy va ijtimoiy tarkibi. Shahar va qishloq

aholisi. Urbanizatsiya va uning regional xususiyatlari. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Mehnat bozori va uning hududiy jihatlari.

4-mavzu. O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining umumiy tavsifi. O'zbekiston sanoati. Yoqilg'i-energetika majmuasi

Milliy iqtisodiyotning shakllanishi xususiyatlari. Uning tarkibiy tuzilishi va rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Yalpi ichki mahsulot. Mamlakat xo'jaligining ixtisoslashuvi va uning mintaqaviy xususiyatlari. Asosiy ixtisoslashgan tarmoqlari. Iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar va ularning geografik jihatlari. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning ahamiyati. Erkin iqtisodiy zonalar. Sanoatning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli. O'zbekistonda sanoatning rivojlanishi omillari. Sanoatning tarmoqlar tarkibi. Og'ir sanoat tarmoqlari. Yengil va oziq-ovqat sanoati. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishii xususiyatlari va hududiy tuzilishi. Sanoat markazlari, sanoat tugunlari, sanoat rayonlari.

Yoqilg'i-energetika majmuasi, uning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Yoqilg'i sanoatining tarmoqlari. Ko'mir, neft va gaz sanoati. Yoqilg'i sanoati korxonalarining joylanishi xususiyatlari. O'zbekistonda ko'mir, neft, tabiiy gaz qazib olish. Elektr-energetika sanoati. Elektr stansiyalar va ularning turlari, joylashuvi xususiyatlari. Gidroelektrstansiyalar va issiqlik elektrstansiyalar. Elektr energiya ishlab chiqarishning tadrjiiy o'zgarishlari va hududiy tarkibi.

5-mavzu. Metallurgiya sanoati va kimyo sanoati

O'zbekiston metallurgiya majmuasi va uning tuzilishi. Qora va rangdor metallurgiya sanoati. Ularning korxonalarini joylashuvi xususiyatlari, xomashyo bazasi, mahsulot ishlab chiqarish. Metallurgiya sanoati geografiyasi. O'zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishi. Uning tarmoqlar tarkibi. Kimyo, neft kimyosi, mineral o'g'itlar, sintetik tola ishlab chiqarish, kimyo-farmasevtika, lok-bo'yoq va boshqa tarmoqlar, ularning joylanishi. Kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish va uning hududiy tuzilishi.

6-mavzu. Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Uning tarkibiy tuzilishi. Transport, traktor va qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, stanoksozlik, asbobsozlik, elektrotexnika mashinasozligi. Mustaqillik davrida mashinasozlikning rivojlanishi. Avtomobilsozlik va uning geografiyasi. Mashinasozlik majmuasida mahsulot ishlab chiqarishning tarmoqlar va hududiy xususiyatlari.

7-mavzu. Qurilish materiallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati.

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishning tadrjiiy va hududiy tarkibi. O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati rivojlanishining imkoniyatlari. Ularning yirik korxonalarini joylanishi.

8-mavzu. Yengil va oziq-ovqat sanoati.

O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati shakllanishi va rivojlanishining omillari. Tarmoqlar tarkibi. Yengil sanoatning to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, poyafzal, oziq-ovqat sanoatining go'sht, sut, un-yorma, yog'-moy, shakar, non mahsulotlari, qandolatchilik, makaron, meva-konserva tarmoqlarining rivojlanishi. Yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlari.

9-mavzu. O'zbekiston qishloq xo'jaligi.

Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga umumiy tavsif. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari haqida tushuncha. Dehqonchilik. Chorvachilik va uning ixtisoslashuvi. Respublika agrosanoat majmuasi. Mustaqillik yillarida agrar islohotlar. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga kelishi. Fermer xo'jaliklarining rivojlanishi. O'zbekiston yer-suv resurslaridan foydalanish. Irrigatsiya va melioratsiya.

Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tarmoqlar tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari. Texnika ekinlari (paxta, tamaki, kanof), g'allachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik, moyli ekinlar va yem-hashak ekinlari yetishtirish. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va mahsulot yetishtirishning mintaqaviy xususiyatlari. Dehqonchilik rayonlari.

Chorvachilikning respublika xo'jaligidagi ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining joylashuviga ta'sir etuvchi omillar. Chorvachilikni tarmoqlar tarkibi. Qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik, qorako'lchilik, parrandachilik, cho'chqachilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa tarmoqlar. Chorvachilik rayonlari Sut-go'sht, go'sht-sut va jun chorvachiligi. Chorva hayvonlari bosh soni va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi.

10-mavzu. Ijtimoiy sohalarining rivojlanishi.

Ijtimoiy soxalarning tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekiston ta'lim tizimi. Sog'liqni saqlash tizimi va uning rivojlanishi. Aholiga xizmat ko'rsatish. Maishiy, madaniy va boshqa xizmatlar. Rekreatsiya resurslari va rekreatsiya geografiyasi. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, turizm geografiyasi.

11-mavzu. O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi.

O'zbekistonda milliy transport tizimining tarkib topishi va rivojlanishi. Transportning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. Transportda yuk va yo'lovchi tashish geografiyasi. O'zbekistonning savdo-iqtisodiy aloqalarida transportning roli. Respublikaning transport majmuasi. Transportning turlari. Temir yo'l,

avtomobil, quvur, havo, daryo transporti. Mustaqillik yillarida mamlakat transportining rivojlanishi, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimlariga chiqish imkoniyatlari. O'zbekistonning yaqin xorij davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari. O'zbekistonning uzoq xorij davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.

12-mavzu. Toshkent iqtisodiy rayoni.

Iqtisodiy rayon xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Rayon iqtisodiyotining hududiy tarkibi va hududiy ishlab chiqarish majmualari. Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Erkin iqtisodiy zonalar. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

13-mavzu. Farg'ona iqtisodiy rayoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik salohiyati, mehnat resurslari. Rayon xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi va ixtisoslashuvi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Ishlab chiqarish salohiyati. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

14-mavzu. Zarafshon iqtisodiy rayoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik salohiyati, mehnat resurslari. Rayon xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi va ixtisoslashuvi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Ishlab chiqarish salohiyati. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

15-mavzu. Janubiy iqtisodiy rayoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik salohiyati, mehnat resurslari. Rayon xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi va ixtisoslashuvi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Ishlab chiqarish salohiyati. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

16-mavzu. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik salohiyati, mehnat resurslari. Rayon xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi va ixtisoslashuvi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Ishlab chiqarish salohiyati. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

17-mavzu. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik salohiyati, mehnat resurslari. Rayon xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi va ixtisoslashuvi. Hududiy

ishlab chiqarish majmualari. Ishlab chiqarish salohiyati. Rayonning ichki tafovutlari va shaharlari. Geoekologik muammolar va rayon xo'jaligi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.

IV. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasini ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganish.
2. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslarini iqtisodiy geografik baholash.
3. O'zbekiston aholisining joylashuvini viloyatlar va qishloq tumanlari bo'yicha tahlil qilish (aholi zichligi misolida).
4. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari jadvalini tuzish va tahlil qilish.
5. Mustaqillik davrida sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish.
6. Viloyatlar bo'yicha asosiy yoqilg'i konlari (ko'mir, neft, tabiiy gaz) va elektr stansiyalarining joylashishi (xarita), yoqilg'i qazib olish va elektr energiyasi ishlab chiqarishni tahlil qilish.
7. O'zbekistonda metallurgiya, kimyo, mashinasozlik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy tarkibini o'rganish.
8. O'zbekistonda qurilish materiallari, o'rmon va yog'ochsozlik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni hududiy tahlil qilish.
9. O'zbekistonda asosiy yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik o'rganish.
04. O'zbekiston qishloq xo'jalik xaritasini tahlil qilish.
04. Viloyatlar bo'yicha asosiy dehqonchilik ekinlari yetishtirishni o'rganish.
12. Viloyatlar bo'yicha chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni statistik tahlil qilish.
13. Viloyatlarning ijtimoiy infratuzilma salohiyatini tahlil qilish.
14. Transport turlari bo'yicha yo'llar uzunligi, yuk va yo'lovchi tashishni geografik tahlil qilish.
15. O'zbekistonning yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari jadvalini tuzish va tahlil qilish.
16. Toshkent iqtisodiy rayoni tabiiy sharoiti va resurslariga iqtisodiy geografik baho berish.
17. Toshkent iqtisodiy rayonining ishlab chiqarish salohiyatini hududiy tahlil qilish.
18. Mirzacho'l iqtisodiy rayoniga umumiy tavsif berish.
19. Farg'ona iqtisodiy rayoniga umumiy tavsif berish.
20. Zarafshon iqtisodiy rayoniga umumiy tavsif berish. Tabiiy sharoiti va resurslarini xo'jalik maqsadlarida baholash.
21. Janubiy iqtisodiy rayoniga umumiy tavsif berish, tabiiy sharoiti va resurslarini, aholisi va mehnat resurslarini o'rganish.
22. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga umumiy tavsif berish, tabiiy sharoiti va resurslarini, aholisi va mehnat resurslarini o'rganish.
23. Iqtisodiy rayonlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini tahlil qilish.

V. Fan bo'yicha kurs ishi

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishini hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishechi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

1. O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini iqtisodiy geografik baholash.
2. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari.
3. Respublika, viloyat va qishloq tumanlarining tabiiy resurslaridan foydalanish.
4. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi.
5. Turizm va rekreatsiya geografiyasi.
6. O'zbekistonda asalarichilik sohalarning rivojlanishi
7. O'zbekiston qishloq xo'jaligi
8. Er va suv resurslaridan foydalanish.
9. O'zbekistonning geodemografik rivojlanishi.
10. Alohida sanoat tarmoqlarining joylanishi va rivojlanishi.
11. O'zbekistonning yoqilg'i -energetika sanoati
12. O'zbekiston sanoatining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini
13. O'zbekiston metallurgiya majmuasi
14. O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi
15. O'zbekistonda transport tarmoqlarining rivojlanishi
16. O'zbekistonda qo'rilish materiallar sanoati geografiyasi
17. O'zbekistonning engil sanoati tarmoqlar geografiyasi
18. O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati tarmoqlar geografiyasi
19. O'zbekistonda dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishi
20. O'zbekistonda chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi
21. O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohalarning rivojlanishi 22. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi
23. Andijon viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi.
24. Farg'ona viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi.
25. Namangan viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
26. Sirdaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
27. Jizzax viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
27. Samarqand viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
28. Buxoro viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
29. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
30. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
31. Xorazm viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
32. Navoiy viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
33. Toshkent viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi
34. Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy geografik tavsifi
35. O'zbekistonning iqtisodiy -geografik rayonlashirilishi
36. Surxondaryo viloyatida engil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi
37. O'zbekistonda bog' dorehlik sohasining rivojlanishi
38. O'zbekistonda paxtachilik sohasining rivojlanishi
39. O'zbekistonda mashinasozlik majmuasining rivojlanishi
40. O'zbekiston suv omborlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati
41. O'zbekistonda agrosanoat majmuining rivojlanishi va istiqbollari
42. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni
43. Zarafshon iqtisodiy rayoni
44. Farg'ona iqtisodiy rayoni
45. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni

46. Toshkent iqtisodiy rayoni
47. Janubiy iqtisodiy rayoni
47. O'zbekistonda tibbiyot sohasining rivojlanishi
48. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi
49. O'zbekistonda ta'lim sohasining rivojlanishi
50. O'zbekistonda rekreatsiya hududlari va ulardan foydalanish istiqbollari
51. O'zbekistonning qishloq joylari geografiyasi.
52. O'zbekistonda g'allaqitlikning rivojlanishi
53. O'zbekistonda poliz va sabzavotchilikning rivojlanishi
54. O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoatining istiqbollari
55. O'zbekistonda pillachilik sohalarning rivojlanishi
56. Respublikada qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmoqlarining rivojlanishi
57. O'zbekistonda fermerchilikning rivojlanishi.
58. O'zbekistonning yaqin horij mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.

VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

1. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlar.
2. Mustaqillik davrida O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar.
3. O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalar geografiyasi.
4. O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalar.
5. O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning tarmoqlar va hududiy tarkibi.
6. O'zbekiston qishloq joylarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish muammolari.
7. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi.
8. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasining mintaqaviy xususiyatlari.
9. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda Prezident Farmonlari va Vazirlar Maxkamasi qarorlarining ahamiyati.
10. O'zbekistonning demografik vaziyatidagi o'zgarishlar.
11. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida klasterlarning roli.
12. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.
13. O'zbekistonda ijtimoiy soxalarning rivojlanishi xususiyatlari.
14. O'zbekiston ta'lim tizimi geografiyasi.
15. O'zbekistonda sotsial geografyaning rivojlanishida "Akromov-Soliev O'zbekiston iqtisodiy geografiya ilmiy maktabi"ning roli.
16. Aholiga xizmat ko'rsatish soxalarini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.
17. O'zbekiston qishloq joylarini ijtimoiy rivojlantirish muammolari.
18. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlari.
19. O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilishning geografik jihatlari.
20. O'zbekiston qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi.
21. O'zbekistonda demografik vaziyat va uning mintaqaviy xususiyatlari.
22. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi.

23. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish.
24. O'zbekiston kurort-rekreatsiya xo'jaligi geografiyasi.
25. O'zbekistonga investitsiya kiritishning mintaqaviy xususiyatlari.
26. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi klasterlarining shakllanishi.
27. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning mintaqaviy xususiyatlari.
28. O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini iqtisodiy geografik jihatdan baholash.
29. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari.
30. O'zbekistonda aglomeratsiya jarayonlari.
31. O'zbekiston aholisi migratsiyasi.
32. O'zbekiston qo'shma korxonalar geografiyasi.
33. Mustaqillik davrida O'zbekiston demografik jarayonidagi o'zgarishlar.
34. Sanoatda hududiy klasterlarning vujudga kelishi.
35. Paxtachilik klasterining rivojlanishi.
36. Uzmchilik klasterining rivojlanishi.
37. Sabzavotchilik klasterining rivojlanishi.
38. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari.
39. Mintaqaviy iqtisodiyot
40. Mintaqaviy siyosat.
41. O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
42. O'zbekiston transport koridorlari va ularning geografik xususiyatlari.
43. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi.
44. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi.
45. Agrosanoat majmuasi.

Izoh- Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari hamda ularning bajarilish shakllari , tegishli maksimal ball va topshirish muddatlari modul – kredit bo'yicha taqsimot jadvalida berilg.

VII. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)

“O'zbekiston geografiyasi” fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadqiq etib, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Shuningdek, atroflicha bilim olish maqsadida, talabalarga mustaqil ish va mustaqil ta'lim beriladi.

VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:

kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi.
plastik usullar; albom-chizma
interfaol keys-stadilar;
guruhlarda ishlash;
taqdimotlarni qilish;
individual loyihalar;
jamo va kichik guruh bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

IX. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ismni topshirish.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T., O'qituvchi, 1996.
 2. Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. –T., 2003.
 3. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. –T.:Universitet, 2014.
 4. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi. –T.: “Mumtoz so'z”, 2010.
 5. Hasanov I., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2007.
 6. Hasanov I., G'ulomov P.N., Qayumov A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). O'quv qo'llanma. –T.: Universitet, 2010.
- Qo'shimcha adabiyotlar:**
7. Mirziyoev SH., M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston 2017
 8. Mirziyoev SH., M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston 2017
 9. Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr. –T.: Oz'bekiston 2017.
 10. Zokirov Sh. S. Ibraimova R. A. Orol tabiiy geografik okrugi. –T.: Mumtoz so'z, 2015.
 11. Akramov Z. M., Rafiqov A. A. Proshloe, nastoyauie i buduuie Aral'skogo morya. –T., 1990.
 12. Ata-Mirzaev O., Tuxliev N. Uzbekistan priroda naselenie ekonomika. “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”. –T., 2009.
 13. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –T., “Abu Ali Ibn Sino”, 2002.